

YOSH AVLOD O'RTASIDA DEVIANT XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHI

Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15766067>

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviant xulq-atvor va uning shakllanish jarayoni, bolalar ongiga ta'siri hamda profilaktikasi keng yoritib beriladi. Deviant xulq-atvorning asosiy turlari va ularga ta'sir etuvchi omillar izohlanadi. Aniq me'zonlarga ega ushbu va tamoyillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Deviant xulq, individ, xarakter, agressiya, huquqbuzarlik, tarbiya, axloq me'yorlari, profilaktika.

Ключевые слова: девиантное поведение, личность, характер, агрессия, обида, воспитание, нравственные нормы, профилактика.

Keywords: deviant behavior, individual, character, aggression, offense, education, moral standards, prevention.

Barchamizga ma'lumki, farzand tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Har bir oila o'ziga xos anana qadriyatlar va ma'lum bir qonun-qoidalar asosida shakllanib boradi. Ayni mana shu tamoyillar poydevorida farzand tarbiyasi rivojlanadi. Oilaviy muhit ta'sirida hayot atalmish borliqning zuvalasi shakllantiriladi. E'tiborli tomoni shundan iboratki, farzandlar oilaviy hayot orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Oila har xil xarakterga ega insonlardan iborat kichik jamiyat. Demak, oila va undagi ijtimoiy muhit jamiyat taraqqiyotida yuksak ahamiyatga ega tushunchalardan biridir.

Nosog'lom oilaviy muhit, farzandlar tarbiyasida loqaydlik deviant xulq-atvorning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan axloqiy me'yorlarga xos bo'lmagan insoniy faoliyat va xatti-harakatlar majmuyi. Ular qatoriga yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish kabilarni kiritish mumkin. Deviant xulq jamiyatda qabul qilingan huquqiy me'yorlarga zid harakat qiladi. Bu kabi holatlarni asosan psixologik nuqsonlik ishilarida, bolalar va o'smirlarda uchratish mumkin. Avvalo, deviant xulq-atvorni patologik jarayonlardan ajratib olish lozim. Ushbu jarayondagi eng muhim me'zonlarga quyidagilarni kiritish mumkin.

Ma'lum bir kasallikka moyillikning bo'lishi; Affektiv qo'zg'aluvchanlik, irodaviy-emotsional beqarorlik, gipertimik belgilar;

Bolalar va o'smirlar uchun mikrosotsial guruhlardan tashqarida deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishi; Buzilgan xatti-harakatlar stereotiplari. Bolalar va o'smirlardagi deviant xulq-atvorning patologik shakllari klinik jihatdan pato xarakterologik reaksiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Deviant xulq-atvorning psixologik omillari orasidan 4ta asosiy funksiyani keltirish mumkin; Aks ettirish, rag'batlantirish, tartibga solish va nazorat qilish. Mana shu funksiyalar deviant xulq-atvorning profilaktikasiga xizmat qiladi. Deviant xulq-atvor asosan psixologik o'zgarishlar negizida paydo bo'ladi ya'ni inson psixologiyasiga bo'lgan ichki va tashqi ta'sirlar mana shu holatlarni keltirib chiqaradi. Avvaliga yolg'onchilikka buzilishlardan boshlanib o'z joniga qasd qilish holatlariga borib yetishi mumkin. Shu asnda bu turning boshqa ko'rinishlarini ham ko'rib o'tamiz.

Kashandalik ya'ni tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish. Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko'ra sigaret tarkibida 196 xil zararli moddalarni saqlaydi. Ulardan 14tasi giyohvand moddalar sirasiga kiradi. Chekishning xavfli jihati shundaki, uning zarari tezda bilinmaydi.

Sekin-astalik bilan organizmni zaharlaydi. Kishining yoshlik davrida alkogolning toksik ta'siri miya va ichki a'zolarining faoliyati buzilishiga olib keladi. Spirtli ichimliklar birinchi navbatda asab tizimi yurak qon- tomir sistemasiga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Insonning me'yordagi jismoniy va ruhiy rivojlanishi buziladi. Tibbiy tekshiruv natijalariga muvofiq tarzda 30-35gramm spirtli ichimlik odamning aqliy qobiliyatini bir necha soatdan bir necha kungacha pasaytirishi aniqlangan.

Giyohvandlik-shaxsga va jamiyatga buzg'unchi ta'sir o'tkazuvchi og'ir oqibatlatga sabab bo'ladigan zararli odatlardan biri. Giyohvand moddalarin son hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Qabul qilish jarayonida kayfiyat ko'tariladi og'riq sezmaydi, emotsional his-tuyg'ular yuzaga keladi.

Narkotik dori vositalari organizmda adaptatsiya xususiyatini paydo qiladi. Natijada dori iste'mol qilmagan paytda agressiya, qaltirash va bir qancha psixo-emotsional ko'rsatkichlar seziladi. Dozani oshirib yuborish juda ham og'ir oqibatlarga olib keladi.

Suitsid-o'z o'zini o'ldirishga urinish. Ko'p hollarda suitsid yechilishi mumkin bo'lmagan muammolardan batamom qutilish yo'lida ektuyiladi. O'z joniga qasd qilish 20 yoshgacha va 55 yoshdan oshganlarda uchraydi.

Jinoyatchilik - bu ijtimoiy huquqiy tartibotni buzish. Deviant xulq-atvorning barcha turlari orasida jinoyatchilik jazolanadigan ekstremal ko'rinishdagi huquqbuzarlik sifatida jamoatchilik e'tiborining markaziga aylandi.

Alkogolizmning shakllanishiga ijtimoiy, genetic fiziologik va psixologik omillar ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarning alkogolizmiga alkogolli muhit sabab bo'ladi ya'ni oilda ota-onaning ichkilikka berilishi yoki do'stlar orasidagi qiziquvchanlik.

Deviant xulq-atvorning oldini olish barchaning kundalik ishining bir qismi bo'lgan majburiyatdir. O'smirlar orasida deviant xulq-atvorning o'sishiga qarshi kurashish uchun ishni avvalo ta'lim muassasalari va oila hamkorligidan boshlash kerak. Mana shu ikki tizim birdamlikda ishlasa, ta'lim va tarbiya jarayonida sustkashlikka yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekistondagi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2002-yil 49173shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rilgan bo'lsa, shundan 2163nafari voyaga yetmagan shaxslar hisoblanadi.

Bu kabi holatlarga yoshlar orasidagi ruhiy buzilishlar ota-ona va o'qituvchi-pedagoglarning e'tiborsizligi sabab bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek inson shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham ota-onalar oilada o'z burchlarini anglagan holda farzand tarbiyasida sustkashlikka also yo'l qo'ymasliklari lozim. Agar farzand kuzatuv ostida bo'lmasa, dangasalikka moyil bo'ladi. Bekorchilik ortidan turli narsalarga taqlid namoyishlari boshlanadi. Tekshirish bo'lmasa, ya'ni kim bola notog'ri yo'lni tanlab nojo'ya xatti-harakatlar oqimiga tushib qolsa, uni bu oqimdan tortib olish oson kechmaydi. Bolalar va o'smirlar ruhiyati juda nozik masala. Ayniqsa, balog'atga yetish davri ota-onadan juda katta sabr va matonatni talab qiladi. Bolaning kelajakdagi xarakteri, xulq-atvori mana shu jarayonda shakllanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, buyuk davlat qurish uchun uning avlodlari ma'nan yuksak, yetuk kamolot egasi bo'lmog'I darkor. Buning uchun yoshlarga huquqiy davlat tizimi va uning mohiyati, qonunni hurmat qilish hamda ularga so'zsiz bo'ysunish madaniyatini o'rgatishimiz zarur. Deviant xatti-harakatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun bolalar va o'smirlarni umumiy manfaatlariga ega bo'lgan guruhlariga biriktirish mumkin. Masalan, musiqa, sport yoki san'at markazlariga olib borish. Yoshlar va o'smirlar barchasining ishtiyoqi o'z qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. Pedagoglarning vazifasi ularning qiziqishlarini to'g'ri baholay olish va maqbul yo'lni belgilab bera olish.

Deviantlik xatti-harakati yoshlarni tarbiyalashda hisobga olinishi kerak bo'lgan ijtimoiy, tipologik va psixologik omillarga bog'liq. Jamiyat taraqqiyotiga qarshi dushmanlardan emas, balki loqayd, bee'tibor insonlardan qo'rqish kerak. Loqayd insonlar o'z farzandlari tarbiyasida ham bu xatoni takrorlaydi. Natijada jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmagan, deviant shaxsning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan har birimiz jamiyat taraqqiyoti uchun ma'sul shaxs sifatida bu masalaga jiddiy nigoz bilan qaramog'imiz darkor. Zero, O'zbekiston kelajagi-yoshlar qo'lida!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Azizov "Shaxs va jamiyatslik Toshkent-2010"
2. L.Olimov "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi darslik Buxoro-2019"
3. Olimov, Avezov "Psixologiya nazariyasi va tarixi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamg'armasi Toshkent-2019".